

Eureka Journal of Education & Learning Technologies (EJELT)

ISSN 2760-4918 (Online)

Volume 2, Issue 6, June 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaoa.com/index.php/2>

CONCEPTUAL-METHODOLOGICAL BASIS OF NATIONAL EDUCATION IN FORMING THE PEDAGOGICAL SKILLS OF FUTURE PRIMARY TEACHERS

Sadriddinova Zulfiya Mirzaliyevna

Senior Lecturer, Department of Education, Kokand University

Email: ms.zulfiyahon08@gmail.com

Abstract

This article analyzes the conceptual and methodological foundations of national education in forming the pedagogical skills of future primary teachers. During the study, the influence of national values, folk pedagogy, ethnopedagogical approaches and value-based pedagogical technologies on the development of pedagogical skills was studied. The study used theoretical analysis, comparative analysis, observation, pedagogical experiment-testing and statistical methods. The results showed that pedagogical approaches based on national education are effective in developing the communicative, reflexive and axiological competencies of future primary teachers. The results of the study substantiate the need to introduce innovative methods based on national education in the pedagogical higher education system.

Keywords: National education, pedagogical skills, ethnopedagogy, primary education, future teacher, pedagogical competence, values, reflexive approach, axiological competence, folk pedagogy.

Eureka Journal of Education & Learning Technologies (EJELT)

ISSN 2760-4918 (Online)

Volume 2, Issue 6, June 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaoa.com/index.php/2>

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING PEDAGOGIK MAHORATINI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY TARBIYANING KONSEPTUAL-METODOLOGIK ASOSLARI

Sadriddinova Zulfiya Mirzaliyevna

Qo‘qon universiteti Ta‘lim kafedrası katta o‘qituvchisi

Email: ms.zulfiyaxon08@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining pedagogik mahoratini shakllantirishda milliy tarbiyaning konseptual-metodologik asoslari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida milliy qadriyatlar, xalq pedagogikasi, etnopedagogik yondashuvlar hamda qadriyatlarga asoslangan pedagogik texnologiyalarning pedagogik mahorat rivojlanishiga ta‘siri o‘rganildi. Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, kuzatuv, pedagogik tajriba-sinov hamda statistik metodlardan foydalanildi. Olingan natijalar milliy tarbiyaga asoslangan pedagogik yondashuvlar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kommunikativ, reflektiv va aksiologik kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali ekanligini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari pedagogik oliy ta‘lim tizimida milliy tarbiya asosidagi innovatsion metodlarni joriy etish zarurligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: milliy tarbiya, pedagogik mahorat, etnopedagogika, boshlang‘ich ta‘lim, bo‘lajak o‘qituvchi, pedagogik kompetensiya, qadriyatlar, reflektiv yondashuv, aksiologik kompetensiya, xalq pedagogikasi.

Аннотация

В данной статье проанализированы концептуально-методологические основы формирования педагогического мастерства будущих учителей начальных классов на основе национального воспитания. В ходе исследования изучено влияние национальных ценностей, народной

Eureka Journal of Education & Learning Technologies (EJELT)

ISSN 2760-4918 (Online)

Volume 2, Issue 6, June 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaoa.com/index.php/2>

педагогике, этнопедагогических подходов и педагогических технологий, основанных на ценностях, на развитие педагогического мастерства. В исследовании использовались методы теоретического анализа, сравнительного анализа, наблюдения, педагогического эксперимента и статистического анализа. Полученные результаты показали, что педагогические подходы, основанные на национальном воспитании, эффективно развивают коммуникативные, рефлексивные и аксиологические компетенции будущих учителей начальных классов. Результаты исследования обосновывают необходимость внедрения инновационных методов национального воспитания в систему высшего педагогического образования.

Ключевые слова: национальное воспитание, педагогическое мастерство, этнопедагогика, начальное образование, будущий учитель, педагогическая компетенция, ценности, рефлексивный подход, аксиологическая компетенция, народная педагогика.

Kirish

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadallik bilan rivojlanayotgan davrda ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan talablar mazmunan yangilanib bormoqda. Zamonaviy jamiyat pedagog kadrdan nafaqat chuqur nazariy bilim va metodik tayyorgarlikni, balki yuksak pedagogik mahorat, milliy qadriyatlarga hurmat, ma'naviy yetuklik hamda innovatsion fikrlash kompetensiyalarini ham talab etmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim tizimida faoliyat yurituvchi pedagoglarning kasbiy sifatlari jamiyatning kelajak taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Chunki boshlang'ich sinf o'qituvchisi bolaning ilk bilim, tarbiya va dunyoqarashini shakllantiruvchi muhim pedagogik subyekt hisoblanadi. Shu jihatdan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik mahoratini

Eureka Journal of Education & Learning Technologies (EJELT)

ISSN 2760-4918 (Online)

Volume 2, Issue 6, June 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaopenaccess.com/index.php/2>

shakllantirishda milliy tarbiyaning konseptual-metodologik asoslarini tadqiq etish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi¹.

So‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda ta‘lim sifatini oshirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish hamda pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilandi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta‘lim sohasiga oid farmon va qarorlarida pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash hamda pedagogik faoliyatga innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarurligi alohida ta‘kidlanadi². Bu esa oliy ta‘lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayoniga milliy tarbiya elementlarini integratsiyalash, pedagogik mahoratni shakllantirishning zamonaviy metodologik mexanizmlarini ishlab chiqishni talab etadi.

Pedagogik mahorat pedagogning kasbiy bilimlari, metodik tayyorgarligi, kommunikativ kompetentligi, pedagogik texnologiyalarni samarali qo‘llash qobiliyati hamda ta‘lim jarayonini ijodiy tashkil eta olish ko‘nikmalarining integrativ tizimi sifatida talqin qilinadi. Ilmiy manbalarda pedagogik mahoratning shakllanishi shaxsiy fazilatlar, pedagogik tajriba, refleksiv yondashuv va ma‘naviy-axloqiy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liqligi qayd etiladi³. Biroq ayrim tadqiqotlarda pedagogik mahorat asosan metodik yoki texnologik tayyorgarlik bilan izohlangan bo‘lsa, boshqa ilmiy qarashlarda esa uning ma‘naviy-madaniy omillar bilan uyg‘unligi muhim pedagogik mezon sifatida e‘tirof etiladi. Aynan shu jihat mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Milliy tarbiya xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlarini, qadriyatlarini, an‘analari va ma‘naviy merosiga tayangan holda shaxsni tarbiyalash tizimini ifodalaydi.

¹ Musurmonova O. Oila ma‘naviyati – milliy g‘urur. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”.

³ Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2006.

Eureka Journal of Education & Learning Technologies (EJELT)

ISSN 2760-4918 (Online)

Volume 2, Issue 6, June 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaopenaccess.com/index.php/2>

Etnopedagogik yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, milliy tarbiya elementlari asosida tashkil etilgan pedagogik faoliyat o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, ma’naviy yetuklik va ijtimoiy mas’uliyat kabi sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi⁴. Shu sababli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining pedagogik mahoratini rivojlantirish jarayonida milliy tarbiya omillaridan samarali foydalanish zamonaviy pedagogikaning muhim metodologik yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Bugungi kunda xalqaro tadqiqotlarda ham pedagogik kompetensiyalarni shakllantirishda milliy-madaniy omillarning ahamiyati ortib borayotgani kuzatilmoqda. UNESCO, OECD kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda pedagog tayyorlash jarayonida madaniy identifikatsiya, qadriyatlarga asoslangan ta’lim va ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan⁵. Bu esa milliy tarbiya va pedagogik mahorat o‘rtasidagi integratsion bog‘liqlikni ilmiy asosda o‘rganish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Adabiyotlar Sharhi

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining pedagogik mahoratini shakllantirish masalasi pedagogika fanining muhim va ko‘p qirrali ilmiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda mazkur muammo doirasida pedagogik mahorat, kasbiy kompetentlik, etnopedagogika, milliy tarbiya hamda qadriyatlarga asoslangan ta’lim masalalari yuzasidan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, pedagogik mahorat nafaqat metodik tayyorgarlik, balki pedagogning ma’naviy-axloqiy qarashlari, madaniy dunyoqarashi va milliy qadriyatlarga munosabati bilan ham chambarchas bog‘liqdir.

⁴ Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.

⁵ UNESCO Global Education Monitoring Report. Paris, 2023.

Eureka Journal of Education & Learning Technologies (EJELT)

ISSN 2760-4918 (Online)

Volume 2, Issue 6, June 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaopenaccess.com/index.php/2>

V.A. Slastenin pedagogik mahoratni pedagogning kasbiy faoliyatni samarali tashkil etish, pedagogik vaziyatlarni to'g'ri baholash va ta'lim jarayonini boshqarish qobiliyatlari bilan izohlaydi⁶. Muallif pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy qismlariga pedagogik tafakkur, kommunikativ madaniyat va kasbiy refleksiyaning kiritadi. Tadqiqotchi qarashlarini tahlil qilish natijasida aytish mumkinki, pedagogik mahorat o'qituvchining faqat nazariy bilimlari bilan emas, balki uning shaxsiy fazilatlarini va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish salohiyati bilan ham belgilanadi.

N.N. Azizxo'jayeva o'z ilmiy tadqiqotlarida pedagogik mahoratni pedagogik texnika, nutq madaniyati, metodik tayyorgarlik va ijodiy yondashuvning yaxlit tizimi sifatida tavsiflaydi⁷. Muallifning fikricha, pedagogik mahoratning rivojlanishi o'qituvchining uzluksiz kasbiy o'sishi va o'z ustida ishlashi bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu yondashuv pedagogik jarayonda innovatsion metodlarni qo'llash hamda pedagogning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning muhimligini ko'rsatadi. Shundan kelib chiqib ta'kidlash mumkinki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy pedagogik ko'nikmalarni shakllantirish ham ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Milliy tarbiya masalalari O. Musurmonova va M. Ochilov tadqiqotlarida keng yoritilgan⁸. Tadqiqotchilar milliy qadriyatlar, urf-odatlar, oilaviy tarbiya va xalq pedagogikasining yosh avlod ma'naviy kamolotidagi o'rnini ilmiy asoslab berganlar. Ayniqsa, pedagog shaxsida milliy ong, ma'naviy madaniyat va axloqiy barqarorlikni shakllantirish ta'lim samaradorligining muhim omili sifatida baholanadi. Keltirilgan ilmiy qarashlar asosida aytish mumkinki, milliy tarbiya pedagogik mahoratning ma'naviy-negizi sifatida namoyon bo'ladi.

OECD tomonidan ishlab chiqilgan "Future of Education and Skills 2030" konsepsiyasida pedagoglarning global kompetensiyalar bilan bir qatorda milliy-

⁶ Slastenin V.A. Pedagogika. – Moskva: Akademiya, 2002.

⁷ Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2006.

⁸ Musurmonova O. Oila ma'naviyati – milliy g'urur. – Toshkent: O'qituvchi, 1999.

Eureka Journal of Education & Learning Technologies (EJELT)

ISSN 2760-4918 (Online)

Volume 2, Issue 6, June 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaopenaccess.com/index.php/2>

madaniy qadriyatlarni ham rivojlantirishi zarurligi ta'kidlangan⁹. Mazkur konsepsiyada reflektiv tafakkur, ijtimoiy mas'uliyat va qadriyatlarga asoslangan yondashuv zamonaviy pedagogning asosiy kasbiy sifatlari sifatida ko'rsatiladi. Ushbu ilmiy qarashlar pedagogik mahoratni shakllantirishda milliy tarbiya va global kompetensiyalar uyg'unligini ta'minlash zarurligini ko'rsatadi.

Shu sababli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik mahoratini shakllantirishda milliy tarbiya omillarining o'rni, ularning metodologik imkoniyatlari hamda pedagogik jarayondagi integratsion mexanizmlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish bugungi pedagogika fanining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Metodologiya

Mazkur tadqiqot bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik mahoratini shakllantirishda milliy tarbiyaning konseptual-metodologik asoslarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, ilmiylik, tizimlilik va kompetensiyaviy yondashuv tamoyillari asosida tashkil etildi. Tadqiqot metodologiyasi pedagogik mahorat va milliy tarbiya o'rtasidagi integratsion bog'liqlikni aniqlash, shuningdek, bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligiga milliy qadriyatlarning ta'sirini ilmiy jihatdan baholashga xizmat qildi. Shu maqsadda tadqiqot dizayni nazariy va empirik yondashuvlarni uyg'unlashtirgan holda ishlab chiqildi. Metodologik jihatdan tadqiqot pedagogik hodisalarni kompleks tahlil qilish imkonini beruvchi integrativ model asosida tashkil etildi.

Taqqoslash metodi orqali milliy va xalqaro pedagogik tajribalar o'rganildi. Xususan, UNESCO hamda OECD tomonidan ilgari surilgan kompetensiyaviy yondashuvlar bilan milliy pedagogik qarashlar o'zaro solishtirildi. Shu asosda qadriyatlarga asoslangan ta'limning bo'lajak pedagoglarni tayyorlashdagi ahamiyati aniqlashtirildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, xalqaro tajribada ham

⁹ OECD Future of Education and Skills 2030. Paris, 2021.

Eureka Journal of Education & Learning Technologies (EJELT)

ISSN 2760-4918 (Online)

Volume 2, Issue 6, June 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaoa.com/index.php/2>

pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishda madaniy identifikatsiya va milliy qadriyatlarga alohida e'tibor qaratiladi.

Empirik metodlar tadqiqotning amaliy qismini tashkil etdi. Tadqiqot davomida so'rovnoma, pedagogik kuzatuv, suhbat va diagnostik baholash metodlaridan foydalanildi. So'rovnoma orqali talabalarning milliy tarbiya, pedagogik qadriyatlar va pedagogik mahoratga oid qarashlari o'rganildi. Pedagogik kuzatuv metodi esa talabalarning ta'lim jarayonidagi kommunikativ kompetensiyalari, pedagogik muomala madaniyati va milliy qadriyatlarga asoslangan pedagogik faoliyatini tahlil qilish imkonini berdi. Shu bilan birga, ochiq va yopiq turdagi savollar asosida respondentlarning refleksiv fikrlari ham o'rganildi.

Tizimlashtirish va umumlashtirish metodlari orqali tadqiqot natijalari yagona ilmiy tizimga keltirildi. Olingan empirik ma'lumotlar nazariy qarashlar bilan integratsiyalashgan holda tahlil qilindi hamda pedagogik mahoratni shakllantirishda milliy tarbiyaning samaradorligi ilmiy jihatdan asoslandi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida milliy tarbiya komponentlarini kuchaytirish zaruratini ko'rsatdi.

Natija

Tadqiqot davomida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik mahoratini shakllantirishda milliy tarbiyaga asoslangan yondashuvlarning samaradorligi tajriba va nazorat guruhlari kesimida o'rganildi. Olingan natijalar miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilindi. Miqdoriy tahlilda o'rtacha ko'rsatkichlar, foizlar, standart og'ish va Student t-testi natijalaridan foydalanilgan bo'lsa, sifat tahlili talabalarning refleksiv fikrlari, pedagogik faoliyatdagi ishtiroki hamda kasbiy kompetensiyalaridagi o'zgarishlarni o'z ichiga oldi.

Tajriba guruhi bilan olib borilgan mashg'ulotlarda milliy tarbiya elementlari, etnopedagogik yondashuvlar, refleksiv metodlar va qadriyatlarga asoslangan pedagogik vaziyatlardan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ushbu

Eureka Journal of Education & Learning Technologies (EJELT)

ISSN 2760-4918 (Online) Volume 2, Issue 6, June 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaopenaccess.com/index.php/2>

yondashuv talabalarning pedagogik tafakkuri, kommunikativ kompetensiyasi va kasbiy refleksiyasini rivojlantirishda sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

1-jadval Pedagogik mahorat komponentlari bo'yicha natijalar

№	Ko'rsatkich turi	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
1	Kommunikativ kompetensiya	18	13
2	Pedagogik refleksiya	17	12
3	Pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish	19	14
4	Milliy qadriyatlarga asoslangan yondashuv	20	13
5	Kasbiy motivatsiya	18	14

2-jadval natijalariga ko'ra, tajriba guruhi talabalari barcha ko'rsatkichlar bo'yicha nazorat guruhiga nisbatan yuqori natijalarni qayd etgan. Ayniqsa, milliy qadriyatlarga asoslangan pedagogik yondashuv ko'rsatkichi eng yuqori natijani ko'rsatdi. Ushbu holat milliy tarbiyaning pedagogik mahoratni rivojlantirishdagi metodologik ahamiyatini tasdiqlaydi.

2-jadval, Etnopedagogik yondashuvlar samaradorligining sifat tahlili

Mavzular (Themes)	Kategoriya va kodlar	f*
Pedagogik refleksiya	O'z faoliyatini tahlil qilish	8
	Mustaqil xulosa chiqarish	7
Kommunikativ kompetensiya	Erkin muloqot	7
	Jamoaviy hamkorlik	6
Milliy tarbiya	Milliy qadriyatlarga hurmat	9
	Tarbiyaviy mas'uliyat	7
Pedagogik ijodkorlik	Innovatsion yondashuv	6
	Muammoli vaziyatlarga yechim topish	5
Kasbiy motivatsiya	Pedagogik faoliyatga qiziqish	8
	O'z ustida ishlash ehtiyoji	6

*f — chastota (kodlarning takrorlanish soni)

Eureka Journal of Education & Learning Technologies (EJELT)

ISSN 2760-4918 (Online)


Volume 2, Issue 6, June 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaopenaccess.com/index.php/2>

2-diagramma. Tajriba va nazorat guruhlarining pedagogik faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlari qiyosiy tahlili (%)



1-diagramma

Xususan, eng yuqori ko'rsatkich «O'quvchilar bilan ishlash kompetensiyasi» mezonida qayd etilib, tajriba guruhida 84% ni, nazorat guruhida esa atigi 61% ni tashkil etdi (farq — 23%). Shuningdek, «Tarbiyaviy faoliyat samaradorligi» (82% va 63%) hamda «Pedagogik muloqot sifati» (79% va 58%) ko'rsatkichlarida ham sezilarli darajada ijobiy o'sish dinamikasi aniqlandi. Bu esa milliy qadriyatlarga asoslangan metodik modelning bo'lajak o'qituvchilar kasbiy mahoratini oshirishdagi amaliy ahamiyatini to'liq tasdiqlaydi.

Kommunikativ komponentdagi yuqori o'sish esa pedagogik muloqotning milliy qadriyatlar asosida tashkil etilishi bilan izohlanadi. Ayniqsa, pedagogik odob, hurmat va tarbiyaviy mas'uliyat kabi ko'rsatkichlarning rivojlanganligi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Umuman olganda, milliy tarbiyaga asoslangan pedagogik yondashuvlarni oliy pedagogik ta'lim tizimiga tizimli ravishda integratsiyalash bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik mahoratini rivojlantirish, ularning kasbiy

Eureka Journal of Education & Learning Technologies (EJELT)

ISSN 2760-4918 (Online)

Volume 2, Issue 6, June 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaopenaccess.com/index.php/2>

kompetentligini oshirish hamda ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirishning muhim pedagogik omili hisoblanadi.

Muhokama

Mazkur tadqiqot natijalari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik mahoratini shakllantirishda milliy tarbiya asosidagi yondashuvlarning muhim pedagogik omil ekanligini tasdiqladi. Tajriba-sinov ishlari davomida kuzatilgan ijobiy o'zgarishlar milliy qadriyatlar, etnopedagogik yondashuvlar va ma'naviy-tarbiyaviy metodlarning pedagogik tayyorgarlik jarayoniga integratsiyalashuvi bilan bevosita bog'liq ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, pedagogik refleksiya, kommunikativ kompetensiya va aksiologik yondashuv ko'rsatkichlarining yuqori darajada o'sishi bo'lajak pedagoglarning kasbiy shakllanishida milliy tarbiyaning metodologik imkoniyatlari keng ekanligini ko'rsatdi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari UNESCO tomonidan ilgari surilgan qadriyatlarga asoslangan ta'lim konsepsiyalari bilan ham mos keladi. UNESCO hisobotlarida pedagogning nafaqat akademik bilimga ega bo'lishi, balki ma'naviy-madaniy kompetensiyalarni ham shakllantirishi zarurligi alohida ta'kidlanadi. Tadqiqot natijalari aynan milliy tarbiya asosidagi pedagogik faoliyat talabalarning kasbiy kompetentligini kuchaytirishini ko'rsatdi. Ayniqsa, kommunikativ va aksiologik komponentlardagi yuqori natijalar pedagogik mahoratning ma'naviy-axloqiy asoslari bilan uzviy bog'liq ekanligini tasdiqlaydi.

OECD tomonidan ishlab chiqilgan zamonaviy kompetensiyaviy yondashuvlarda ham pedagog shaxsining reflektiv va ijtimoiy kompetensiyalariga katta e'tibor qaratiladi. Bizning tadqiqotimizda reflektiv topshiriqlar va qadriyatlarga asoslangan pedagogik metodlardan foydalanish talabalarning o'z faoliyatini tahlil qilish, pedagogik vaziyatlarga moslashuvchan yondashish va mustaqil pedagogik qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirdi. Bu esa milliy tarbiya

Eureka Journal of Education & Learning Technologies (EJELT)

ISSN 2760-4918 (Online)

Volume 2, Issue 6, June 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaopenaccess.com/index.php/2>

elementlari pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali vositasi ekanligini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, an'anaviy pedagogik tayyorgarlik jarayonida ko'proq nazariy bilimlarga ustuvor ahamiyat qaratilib, milliy tarbiyaning amaliy komponentlari yetarli darajada integratsiyalashmagan. Natijada bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik faoliyatga ma'naviy-aksiologik yondashuv to'liq shakllanmay qolmoqda. Tajriba guruhi natijalari esa xalq pedagogikasi elementlari, milliy qadriyatlar va refleksiv metodlarning qo'llanilishi pedagogik tayyorgarlik samaradorligini sezilarli oshirishini ko'rsatdi.

Xulosa Va Takliflar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik mahoratini shakllantirishda milliy tarbiyaga asoslangan pedagogik yondashuvlar yuqori samaradorlikka ega hisoblanadi. Tadqiqot davomida milliy qadriyatlar, etnopedagogik yondashuvlar, refleksiv metodlar va xalq pedagogikasi elementlarini pedagogik tayyorgarlik jarayoniga integratsiyalash talabalarning pedagogik refleksiyasi, kommunikativ kompetensiyasi, pedagogik odobi va kasbiy motivatsiyasini sezilarli darajada rivojlantirgani aniqlandi. Bu esa pedagogik mahoratning nafaqat kasbiy, balki ma'naviy-axloqiy komponentlarini ham shakllantirishda milliy tarbiyaning muhim metodologik asos ekanligini ko'rsatadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari milliy tarbiya asosidagi pedagogik yondashuvlar bo'lajak pedagoqlarda pedagogik mas'uliyat, kasbiy faollik, mustaqil fikrlash va refleksiv tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatdi. Olingan natijalar UNESCO hamda OECD tomonidan ilgari surilgan qadriyatlarga asoslangan ta'lim konsepsiyalari bilan hamohang ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga, xalq pedagogikasi va etnopedagogik yondashuvlar zamonaviy pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishda samarali vosita ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Eureka Journal of Education & Learning Technologies (EJELT)

ISSN 2760-4918 (Online)

Volume 2, Issue 6, June 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaopenaccess.com/index.php/2>

Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida "Milliy tarbiya va pedagogik mahorat"ga oid integrativ maxsus kurslarni joriy etish tavsiya etiladi. Bu bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini milliy qadriyatlar asosida rivojlantirish imkonini beradi.
2. Bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayoniga xalq pedagogikasi va etnopedagogik yondashuvlarni tizimli integratsiyalash zarur. Ayniqsa, amaliy mashg'ulotlarda milliy tarbiyaga oid pedagogik vaziyatlar va refleksiv topshiriqlardan foydalanish samarali natija beradi.
3. Pedagogik amaliyot jarayonida Sharq mutafakkirlari merosi, milliy-ma'naviy qadriyatlar va tarbiyaviy an'analar asosida interaktiv metodlarni qo'llash tavsiya etiladi. Bu talabalarda pedagogik tafakkur va kasbiy refleksiyani rivojlantirishga xizmat qiladi.
4. Natijada, milliy tarbiyaga asoslangan pedagogik yondashuvlarni bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayoniga integratsiyalash pedagogik mahoratni rivojlantirish, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish hamda pedagoglarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini yuksaltirishda muhim vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, mazkur yondashuv zamonaviy pedagogik ta'limni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida".
2. Gennady Volkov. (1999). Etnopedagogika. Moskva: Akademiya.
3. UNESCO. (2021). Reimagining our futures together: A new social contract for education. Paris: UNESCO Publishing.
4. OECD. (2019). Future of Education and Skills 2030. Paris: OECD Publishing.

Eureka Journal of Education & Learning Technologies (EJELT)

ISSN 2760-4918 (Online)

Volume 2, Issue 6, June 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaopenaccess.com/index.php/2>

5. Musurmonova, O. (2016). Oila ma'naviyati – milliy tarbiya asoslari. Toshkent: O'qituvchi.
6. Qurbonov, Sh. (2018). Pedagogik mahorat va kompetentlik asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya.
7. Xoliqov, A. (2021). Pedagogik mahorat. Toshkent: Iqtisod-moliya.
8. Sharapov, S. (2023). Milliy tarbiya asosida pedagogik kompetensiyalarni shakllantirishning zamonaviy yondashuvlari. Pedagogik ta'lim, 3(1), 66–74.
9. Ismoilova, D. (2022). Etnopedagogik yondashuvlar asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish. Uzluksiz ta'lim, 5(3), 81–89.
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2019). Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi. Toshkent.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. Toshkent.
12. UNICEF. (2020). Global Framework on Transferable Skills. New York: UNICEF.
13. Niyozov, G., & Ahmedjanova, N. (2021). Values-based teacher education in Central Asia. International Journal of Education Development, 14(2), 101–109.